

RUSIYZABON BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZBEK TILINIAUDIO VA VIZUAL USULLARIDA O'RGATISH:QAY BIRI SAMARALIROQ?

Abdullayeva Latofat Rashidbek qizi,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
davlat universiteti 4-bosqich talabasi hamda
Urganch shahridagi 10-sonli umumiy o'rta
ta'lim maktabi o'zbek tili fani o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada rusiyzabon boshlang'ich sinflarda o'zbek tilini o'qitishda audio va vizual metodlarning samaradorligi masalasi tahlilga tortilgan. Tadqiqot davomida tinglash orqali til o'rganishning o'quvchilarga ta'siri, xususan, yozma matn bilan birgalikda ishlatilgan audio metodlar va faqat eshitish orqali o'zlashtirish usullarining natijalari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tajriba natijalariga ko'ra, audio + matn metodidan foydalanish o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, grammatik tuzilmalarga e'tibor qaratish, matnni idrok etish va eshitganini yozma shaklda aniq ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan. Shu bilan birga, vizual omillarsiz faqat audio asosida o'rganish o'quvchilarning faraz qilish, fantaziyasi, tasavvur qilish va kreativlik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinflarda til o'qitish jarayonida tinglash metodlarini keng joriy etishning samaradorligini tasdiqlaydi.

KALIT SO'ZLAR:

Rusiyzabon boshlang'ich sinflar, audio metod, tinglash madaniyati, tinglash orqali o'rganish, yozma matn, vizualizatsiya, o'quvchilarning fantaziya va tasavvur qilish

qobiliyati, lingvodidaktika, innovatsion metod, media ta'lim, alfa avlod, informatsion immunitet.

Televizor orqali film yoki ko'rsatuv tomosha qilayotganimizda, ko'pincha ekrandagi go'zal chehralar va tasvirlarga e'tiborimizni qaratamiz. Natijada, ba'zan film yoki ko'rsatuvning mazmunini to'liq anglamasligimiz mumkin. Xuddi shuningdek, seminar, trening, konferensiya yoki o'quv mashg'ulotlari davomida tinglovchilarning ayrimlari diqqatini jamlay olmay, chalg'ishi yoki hatto mudroq bosishi kuzatiladi. Bu holatlar insonlarning tinglash qobiliyati yetarlicha rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Shu sababli, dars jarayonlarida audiomateriallardan kengroq foydalanish, audiodarslarni ko'paytirish orqali tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu yondashuv o'quvchilarning tinglab tushunish qobiliyatini oshirib, ta'lim samaradorligini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Vizual metodlarning o'quvchilarning o'zbek tilini o'zlashtirishiga ta'siri

Vizual metodlar, jumladan, rasmlar va diagrammalar, o'quvchilarning mavzuni vizual idrok etish orqali yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Dasturlashtirilgan metodlar asosida turli interfaol o'yinlar qo'llanilganda, bu usullar yanada samarali natija berishi mumkin. Masalan, "Yil fasllari" mavzusi doirasida mashq va topshiriqlar smart doska yoki televizor ekrani orqali bajarilganda, ekranda fasllarga oid suratlar ketma-ket namoyon bo'ladi. Bu rusiyzabon o'quvchilar uchun vizual lug'at vazifasini o'tab, ularning so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Rasmlar bilan birga ularning o'zbek tilidagi yozuvi ham ko'rsatilsa, so'zlarni vizual idrok qilish orqali yaxshiroq eslab qolishlari ta'minlanadi.

Bundan tashqari, vizual metodlarni audio materiallar bilan uyg'unlashtirish yanada samarali natija beradi. Agar o'quvchilar faqat rasmlar va diagrammalarga tayanib o'rgansa, ayrimlar mavzuni chuqur tushunmay qolishi mumkin. Biroq, rasmlar bilan birga so'zlarning tovushli talaffuzi ham eshittirilsa, eshitish va ko'rish orqali

axborotni qabul qilish jarayoni yanada samarali kechadi. Bu metod o'quvchilarning eshitish va vizual idrok qilish qobiliyatlarini birgalikda rivojlantirib, ularning o'zbek tilini o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi.

Audiovizual metodlarning dars samaradorligiga ta'siri:

Dars jarayonida vizual va eshitish usullaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, bu usullarni muvofiq uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, vizual materiallar bilan boyitilgan darslarda tushuntirish ishlari orqali o'quvchilarga qo'shimcha izoh berish lozim. Chunki faqatgina rasmlar yoki diagrammalar bilan cheklanib qolish barcha o'quvchilar uchun teng natija bermasligi mumkin.

Agar dars to'liq ovozli videodarslarga asoslangan bo'lsa, bu usulning ham o'ziga xos afzalliklari mavjud. Biroq, bu holatda ham butun sinfning diqqatini matn yoki topshiriqqa to'liq jalb qilish mushkul bo'lishi mumkin. Sababi, o'quvchilarning ayrimlari videoning mazmuniga e'tibor qaratsa, boshqalari faqat vizual tasvirlarga qiziqib qolishi ehtimoli bor. Bu esa videodarsning asosiy maqsadiga to'liq erishishni qiyinlashtiradi.

Shuning uchun ham audiovizual materiallardan foydalanganda, ularni interfaol elementlar bilan boyitish va o'quvchilarning e'tiborini faol ravishda jalb etish muhimdir. Masalan, video davomida muayyan joylarda savollar berish, topshiriqlar kiritish yoki videoroliklarni muhokama qilish orqali o'quvchilarning diqqatini kerakli yo'nalishga tortish mumkin.

Faqatgina audio metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni:

O'quv jarayonida faqatgina audio (ovoz) materiallardan foydalanish o'qituvchi ko'zlagan maqsadiga to'liq erishishiga yordam berishi mumkin. Sababi, audiomatn tinglanganda, o'quvchining e'tiborini chalg'itadigan vizual elementlar (rasm, video, diagramma) mavjud bo'lmaydi. Natijada, o'quvchi matnni to'liq tushunishga harakat qiladi va unda tasavvur qilish, fantaziya va ijodkorlik qobiliyatlari shakllanadi.

Audiomatn orqali tinglovchilar berilgan ma'lumotni ongida mustaqil tarzda jonlantirishga, tasviriy-ifodaviy fikrlashga va tinglash qobiliyatini rivojlantirishga majbur bo'ladi. Masalan, audiomatnda tasvirlanayotgan jarayon yoki suhbatni o'quvchi o'z tasavvurida shakllantirishga harakat qiladi. Bu esa faqat tinglash orqali idrok qilish qobiliyatini oshirish bilan birga, mantiqiy fikrlash va tushunish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Bundan tashqari, ushbu metod o'zlashtirishi pastroq bo'lgan o'quvchilar uchun ham foydalidir. Chunki, audiomatnlar tinglanganda, o'quvchilar matndagi ma'noni to'liq tushunish uchun fikrlash jarayonini faollashtiradi va matnni qayta-qayta tinglash orqali o'z bilimini mustahkamlaydi. Shuningdek, ovozli dars butun sinfning diqqatini jalb qilishga yordam beradi, chunki vizual tasvirlardan chalg'imaslik natijasida o'quvchilar faqat ma'noga e'tibor qaratadi.

Shu sababli, audio materiallardan foydalanish ba'zi hollarda audiovizual yoki vizual metodlardan ham samaraliroq bo'lish ehtimoli yuqori. Zero, audio metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va tinglash orqali til o'rganish jarayonini kuchaytiradi.

An'anaviy usullar va zamonaviy avlodning ta'limga munosabati:

Hozirgi kunda dars jarayonida an'anaviy usullar (kitob bilan ishlash, yozma mashqlar bajarish)dan kamroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki hozirgi "Alfa" avlod — zamonaviy texnologiyalar va gadjetlar ichida ulg'ayayotgan avloddir. Ularning tafakkur tarzi, axborot qabul qilish usullari oldingi avlodlardan tubdan farq qiladi.

Bu avlodning ehtiyojlariga moslashish uchun o'qituvchilar ham zamonaviy texnologiyalarni o'rganishga majburdir. Chunki ular nafaqat texnologiyalardan foydalanish, balki yangilarini yaratish qobiliyatiga ham egadirlar. Shu sababli, an'anaviy doskalarga bo'r bilan yozish yoki kitobdan matn o'qish endi ularning qiziqishini kamaytirishi mumkin. Ular interfaol ta'lim muhitida, vizual va

audiomateriallar bilan boyitilgan, jonlantirilgan (animatsiyali) darslarni afzal ko'radilar.

Alfa avlod vakillari dars jarayonida smart doskalar, planshetlar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanishni istaydilar. Chunki bunday usullar axborotni tez va samarali qabul qilishga yordam beradi. O'qituvchilar esa buni inobatga olib, innovatsion metodlarni kengroq joriy etishlari lozim. Bu esa nafaqat darslarni qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarning faolligini oshirib, ularning ta'lim jarayonidagi ishtirokini sezilarli darajada kuchaytiradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich sinflarda o'zbek tilini o'rgatishda vizual va eshitish (audio) metodlarining har biri o'ziga xos afzalliklarga ega.

1. Vizual metodlar ~ rasmlar, diagrammalar, interfaol o'yinlar va smart doskadan foydalanish orqali o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ularning yangi so'zlarni eslab qolishiga yordam beradi. Ayniqsa, yil fasllari, ranglar, shakllar kabi mavzularni tushuntirishda samarali bo'lib, o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi. Biroq, vizual materiallar haddan tashqari ko'p bo'lsa, ayrim o'quvchilar faqat tasvirlarga e'tibor qaratib, ma'noni chuqur tushunmay qolishlari mumkin.

2. Tinglash (audio) metodlari — audiomatnlar va ovozli darsliklar yordamida o'quvchilarning tinglash hamda tasavvur va faraz qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu usul ayniqsa, matnni tushunish, fikrlash, tasavvur qilish va ijodkorlik kabi qobiliyatlarni shakllantirishda samarali. O'quvchi tasvirga tayanmagan holda tinglash orqali matnni tushunishga harakat qiladi, bu esa uning e'tibor va xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Kombinatsiyalangan yondashuv: Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, vizual matnlar audio bilan birga qo'llanganda (masalan, matn + ovoz kombinatsiyasi), o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshadi. Shu bois, dars

jarayonida ikkala metodni uyg'unlashtirib muvozanatli qo'llash eng samarali usul hisoblanadi.

O'quv jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning motivatsiyasini ham kuchaytiradi.

Praktik (amaliy) kuzatuv natijalari:

Tadqiqot davomida o'quvchilarning o'zbek tilini eshitish va yozma matn asosida o'rganish samaradorligini tahlil qilish maqsadida ikki guruhda eksperiment o'tkazildi.

1-guruh: Audio + yozma matn

Bu guruhga qo'shiq matni yozilgan qog'ozlar tarqatildi. O'quvchilarga topshiriq sifatida nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zlarni tinglab to'ldirish vazifasi yuklatildi. Ushbu metod o'quvchilar uchun bir vaqtning o'zida eshitish va matnni o'qish orqali til birliklarini mustahkamlash imkonini berdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar eshitgan so'zlarini yozma shaklda aniqroq anglab, tushunishdi, chunki matn ularga mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash, xatolarni tuzatish va ma'no doirasini kengaytirish imkonini berdi.

2-guruh: Faqatgina audio (tinglab yozish)

Bu guruhga yozma matn tarqatilmadi. O'quvchilardan faqat tinglash orqali qo'shiq matnini tushunib, so'zlarni yozish so'raldi. Natijalarga ko'ra, o'quvchilarning ayrimlari ba'zi so'zlarni noto'g'ri yoki tushunmagan holda yozishdi, chunki ularda vizual qo'llanma mavjud emas edi. Shu sababli, esitish orqali o'rganish o'quvchilar uchun muhim bo'lsa-da, ularni tushunish va esda saqlash jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishlari kuzatildi.

Umumiy xulosa:

O'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, audio va yozma matn uyg'unligida o'quvchilarning tahlil qilish, fikrlash va eshitilgan ma'umotini anglash qobiliyatlari

yuqori darajada rivojlanadi. Muhimi shundaki, vizual elementlardan foydalanilmagan holatlarda o'quvchilar ma'lumotni o'z tasavvurlarida jonlantirishga, eshitgan matni asosida ichki vizualizatsiya yaratishga intiladilar.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, audio asosida o'rganish jarayoni o'quvchilarning faraz qilish, tasavvur qilish, fantaziya, mantiqiy bog'lanishlarni anglash va ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki, vizual qo'llanmalarsiz eshitilgan nutqni tushunish va qabul qilish miya faoliyatida tasviriy obrazlar yaratish jarayonini faollashtiradi. Bunday metod rusiyzabon o'quvchilarning tilni faqat yodlash emas, balki chuqurroq anglash va fikrlash orqali o'zlashtirishiga yordam beradi.

Shu boisdan, rusiyzabon boshlang'ich sinflarda o'zbek tilini o'rgatishda audio va yozma matn uyg'unligi samarali metodlardan biri bo'lib, vizual omillarning yo'qligi esa o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniq.

Adabiyotlar:

1. Qurbanova Z.K. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayonlarida multimedia vositalaridan foydalanish. "Science and Education". ISSN 2181-0842. Vol.5 N6 (June, 2024). (251-253-betlar)
2. Jadigerova G.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv malakasini shakllantirish texnologiyasi. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" (2022, N12). ISSN 2181-1709 (P). (96-99-betlar). <http://interscience.uz>
3. Turg'unbayeva F.O. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xorijiy tilni o'rgatishda so'zlarni yodlash metodikasini zamonaviy multimedia vositasi asosida takomillashtirish. "Pedagogik tadqiqotlar" jurnali, 14-21-betlar. ISSN 3060-4923, IMPACT Factor 7,212. Vol.2 N2 (2025).
4. Mamadjonova U. Boshlang'ich sinfda o'qitishning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari. <https://Kun.uz>
5. Abdimuratova A.T; Abishova A.K; Jamonova L.T. Boshlang'ich ta'limda yangi

pedagogik texnologiyalarning oʻrni va ahamiyati. Proceeding of International Conference on modern science and scientific studies, hosted online from Paris, France. (14-dec, 2022). E-Conference series. Open access. Vol.1N3(2022). (69-71-betlar) www.econferenceseries.com